

**TARAXACUM OFFICINALE (MOMAQAQYMOQ) O'SIMLIGINING XALQ
TABOBATIDAGI AHAMIYATI**

Dolimov X.X.

O'zRFA O'simlik moddalar kimyosi instituti m.t.

Dolimova U.A., Mo'sajonova G.D.

Xo'jayusupov S.N.

FarDU tabiiy fanlar fakulteti, kimyo kafedrasi talabalari

Taraxacum officinale yoki mahalliy nomi dandelion, momaqaymoq deb yuritiluvchi ko'p yillik ushbu o'simlik iqlimi mo'tadil bo'lgan mintaqalarda ko'p tarqalgan. Dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan ushbu shifobaxsh o'simlikdan qadimdan xalq tabobatida foydalanib kelinmoqda. Taraxacum officinale ildizidan tayyorlanadigan choy, gullari yoki o'tlarining foydalari va zarari haqidagi ma'lumotlar sizga turli xil kasalliklarda undan qanday foydalanishni tushunishga yordam beradi. Taraxacum officinale turli xil dorivor xususiyatlarga ega bo'lganligi sabab uning barcha terapevtik qobiliyatlarini sanab o'tishni deyarli iloji yo'q. Shunday bo'lsada uning asosiy xususiyatlarini keltirib o'tamiz: xoleretik, diuretik, laksatif, glyukoza miqdorini kamaytiruvchi, oshqozon osti bezi faoliyatini rag'batlantiruvchi, terlatuvchi, isitmani tushiruvchi, ishtaxa ochuvchi, yallig'lanishga qarshi, tinchlantiruvchi, antigistamin, virusga qarshi, ekspektoran, silga qarshi qo'llanishi ham mumkin. O'simlikning farmokologik xususiyatlari uning kimyoviy tarkibi bilan begilanadi.

Taraxacum officinalening kimyoviy tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Vitaminlar	Makroelementlar	Mikroelementlar
Karotin	kalsiy (Ca)	temir (Fe)
B1 (tiamin)	magniy (Mg)	rux (Zn)
B2 (riboflavin)	natriy (Na)	mis (Cu)
B3 (pantotenik)	kaliy (K)	marganes (Mn)
B6 (piridoksin)	fosfor (P)	selen (Se)
K(filloquinon)		
PP		

Taraxacum officinaledan tayyorlangan choy tanani toksinlardan yaxshi tozalaydi. Uni iste'mol qilish zararli xolesterin konsentratiyasining pasayishiga olib keladi va anemiya holatida qon hujayralarining sog'lom muvozanatini tiklaydi. 100 gramm yosh va yangi Taraxacum officinale barglari tarkibida 45 kkal energiya saqlab, shuncha miqdordagi o'simlikning yangi yig'ilgan adekvat qismida: 2,7 gramm oqsillar, 0,7

gramm yog'lar, 5,7 gramm uglevodlar, 3,5 gramm xun tolasi, 1,8 gramm kul, 85,6 gramm suv, 0,71 gramm mono- va disaxaridlar, 0,17 gramm to'yingan yog' kislotalari mavjud. *Taraxacum officinale* sharbati 24 % inulin va 2-3 % kauchuk moddalarini ham o'z ichiga oladi. Ildizlarida triterpen birikmalari, sterollar, uglevodlar va yog'lar, paraksantin, karotinlar, asparagin, tarakserol, taraksol, taraksasterollar mavjud. Gullari va barglari luteinga boy hisoblanib, bugungi kunda tibbiyot sohasida qon aylanish va ovqat hazm qilish kasalliklarini davolashda ildizi va barglaridan tayyorlangan damlamalardan keng foydalanilmoqda.

O'rta asrlarda odamlar ko'pincha bu gullarning tumorlarini o'zlari bilan taqib yurishgan. Agar qishloq biror bir epidemiyaga duchor bo'lgan bo'lsa, unda aholi bir hovuch lavanda yig'ib, yoqib lavanda tutunidan foydalanishgan. Qadimgi Rimliklar lavanda efir moyidan birinchi bo'lib foydalangan. Xususiyatlari bugungi kunga qadar o'rganilayotgan lavanda moylari tibbiyotda juda mashhur.

XX asrning boshlarida fransuz kimyogari Rene Moris lavanda tarkibidagi efir moylarini kashf etdi. 1910-yilda esa laboratoriyadagi portlashdan keyin og'ir kuygan Rene Moris terini lavanda moyi eritmasi bilan yog'laydi. Yaralar tezda shifo topadi va minimal miqdorda iz qoldiradi. Olim yana bir bor bu efir moyining antiseptik va yaralarni davolovchi ta'siriga ishonch hosil qildi.

Olimlar tadqiqoti bo'yicha lavandaning efir moylari antibakterial va antifungal modda sifatida ajoyib ekanligi isbotlandi. Uning xossalari ushbu tarkibiy qismni kremlar va maskalarda yordamchi komponent sifatida ishlatishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1) Abdullayev A.A., Madumarov T.A., Dariyev A.S., Sattorov B.X., Ro'zmatov E.Yu., Sirojiddinov B.A. „Biologiyadan qisqacha izohli lug'at“ // Metodik qo'llanma-Toshkent:Navro'z, 2016.

2) Stewart-Wade, S.M.; S.Newmann; L.L.Collins; G.J.Boland. „The biology of Canadian weeds. 117. *Taraxacum officinale* G.H. Weber ex Wiggers“ Canadian Journal of Plant Science. 2002.